



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 1 (03)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 1-son 2026 yil*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

1

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Tursunov A.M. O‘zbekiston elektroenergetikasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar va “Yashil” energetikaning o‘rni.....	7
Abdulazizov A.A. Raqamlashtirish sharoitida energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanish omillari.....	11
Jurayev D.A. Электротехника sanoati korxonalarida ishlab chiqarish jarayoniga taʼsir etuvchi omillar.....	15
Suyarov Sh.S. Konchilik sanoati korxonalarida resurs salohiyatidan samarali foydalanish.....	18
Кариева Л.С. Энергетика sanoati korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	21
Axtamov A.U. Aksionerlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning moliyaviy samaradorlikka taʼsiri xususida.....	25
Гафуров А.Б. Значение цифровой трансформации управления образованием в высших учебных заведениях.....	29
Абиткариев А.М. Значение развития человеческого капитала и стимулирования трудовой деятельности.....	33
Abdullayev D.G’. Intellektual kapital: tushunchasi, mazmuni va taraqqiyoti.....	37
Abdullayev M.G’. Xodimlarning professional rivojlanishini baholash usullari.....	42
Isakov A.Y. Tadbirkorlik sub’yektlarida raqobat ustunliklarini shakllantirishning asosiy omillari.....	46
Ashurova G.N. Charm poyabzal sanoatining xom-ashyo ishlab chiqarish va uning zahira resurslari.....	52
Yo‘ldosheva M.F. O‘zbekistonda davlat budjeti daromad va xarajatlarining tarkibi va ularning statistik tahlili.....	56
Қулматов А.А. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikni mintaqalarda qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari.....	61
Babayev A.N. Yoshlar bandligini taʼminlashni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari va institutsional mexanizmlari.....	67
Sharipov H.A. Oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy mazmuni va xo‘jalik yuritish shakli sifatidagi o‘ziga xos belgilari.....	71
Турдиева Я. Анализ коррупционных рисков в системе гчп в сфере дошкольного образования.....	75
Vaxidov A.K. Personalni tanlash va ishga yollashning xorijiy tajribalari.....	78
Gaymatova D.G’. Biznes faoliyatini samaradorligini oshirishda iqtisodiy-matematik tahlil.....	83
Pardayev E.E. Xizmat ko‘rsatish jarayonlarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi.....	87
Ibragimova S.A., Muradov Sh.D. Aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruvida innovatsion usullarni joriy etishning zamonaviy tendensiyalari.....	91
Адилов Б.Б. Социальные услуги в Республике Узбекистан: современное состояние, проблемы и перспективы развития.....	96
Yoqubova Z.T. Tarkibiy o‘zgarishlar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi mutanosiblikni taʼminlashning konseptual asoslari.....	101
Saidaxmedova N.I., Aripov A.S. Oliy taʼlim tashkilotlari boshqaruv tizimini shakllantirishda iqtisodiy nazariyalarning metodologik ahamiyati.....	106
Abduvovyeva X.Sh. O‘zbekistonda davlat ijtimoiy xarajatlarining aholi farovonligiga taʼsirining korrelyatsion–regression tahlili.....	111
Умаров А.А. Хорижий тажрибаларга асосан янги банк хизматларини жорий этилишини ривожлантириш натижасида тижорат банкларини хизматлар жозибадорлигини ошириш... Shoraximova Z.N. «O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalarida qayta sug‘urta orqali risklarni diversifikatsiya qilish samaradorligini baholash».....	116
Умурзакова З.С. Меҳнат омилидан фойдаланишни такомиллаштириш йўллари.....	126
Karimov X.O. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirishning institutsional strategiyalari.....	130

Aхунов М.А. Корхона иқтисодий самарадорлигини таъминлашнинг асосий йўналишлари.	134
Ахмаджонов С.С. Корхона асосий фондларидан фойдаланишни яхшилашнинг ижтимоий-иқтисодий самараси.....	138
Abdullayeva Sh.А. Veb-texnologiyaga asoslangan bir turdagi tovar zaxiralari boshqarish va amaliy masalalarni optimallashtirish.....	142
Дусанов С.М. Таълим тизимида рақобат муҳитини ривожлантиришнинг молиявий ресурслардан фойдаланиш аҳамияти.....	146
Мамаражобов А.С. Tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati natijalarini reytinglash va undan foydalanish masalalari.....	151
Nigmatova D.Z., Amanov E.G’. Kadrlar qo‘nimsizligining korxonalar samaradorligiga ta’siri.....	157
Ikromjonova M.U. To‘qimachilik korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning iqtisodiy mohiyati va tarkibi.....	160
Madaminjonov A.O. To‘qimachilik korxonalarida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish hisobini rivojlantirishning iqtisodiy jihatlari.....	164
Jamoliddinova S.S. Ustama xarajatlarning iqtisodiy mohiyati, tarkibi va ishlab chiqarish tannarxini shakllantirishdagi o‘rni.....	168
Akbaraliyev A.E. O‘zbekiston Respublikasida investitsiya siyosati va investitsiya dasturlarining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni.....	173
Эрматова С.И. Учет обязательств в хозяйствующих субъектах.....	178
Maxsudov Sh.S. To‘qimachilik sanoati korxonalar faoliyati samaradorlikni monitoring qilishning ahamiyati.....	181
Boyev X.I., Adilov B.B. Mahalliy byudjetlar barqarorligi — ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash omili sifatida.....	186
Raxmonova N.A. Biznes ta’limida raqamli transformatsiya va innovatsion o‘qitish strategiyalari.....	190
Якубова Д.М. Применение экономико-математических моделей в промышленном производстве.....	194
Ibrohimov N.B., Jabbarov K.Y. Aylanma iqtisodiyotga o‘tishning fundamental asoslari: chiziqli modelning cheklovlari va barqaror rivojlanish imkoniyatlari.....	198
Matyoqubova D.O. Biznes tuzilmalarining innovatsion rivojlanishini diversifikatsiya qilish.....	202
Rahmatullayeva F. Andijon viloyatida yoshlar tadbirkorligi rivojlanishining tarmoqlararo diversifikatsiyasi va iqtisodiy faollikka ta’siri.....	206
Mamajonov L.A. Mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligini ta’minlash yo‘nalishlari.....	209
Давруков Ф.У. Инновационные механизмы демонополизации в условиях цифровой трансформации экономики Республики Узбекистан.....	213
Убайдуллаева Н.Р. Роль перестрахования в управлении катастрофическими рисками и обеспечении финансовой устойчивости страховых компаний.....	222
Abdullayev A.A. Tijorat banklari orqali kichik biznesni moliyalashtirish samaradorligini oshirish mexanizmlari.....	227
Alimov O.N. O‘zbekiston Respublikasida jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimining huquqiy asoslari va rivojlanish istiqbollari.....	230
Sultonov B.M. Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishda va boshqaruv mexanizmi bo‘yicha institutsional asoslari.....	235
Mamajonova N.A. Innovatsion rivojlanish sharoitida iqtisodiy tizimlarni boshqarish nazariyalarining transformatsiyasi hamda uning evolyutsiyasi.....	239
Sanaqulova A. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish: muammolar va imkoniyatlar.....	243
Nazarov N.N. Hududiy barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish.....	247
Toshpulatov A.M. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajminiga oid qarashlar va uning mohiyati.....	251
Sanaqulova A., Ochilova M. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot.....	254
Umarov I.Y. Xalqaro darajada sifat menejmenti va ISO standartlarini rivojlanish tendensiyalari tahlili....	257

**HUDUDIY BARQAROR RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI
SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИЧЕСКИХ ОСНОВ ФОРМИРОВАНИЯ
СТРАТЕГИИ ТЕРРИТОРИАЛЬНОГО УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ**

**IMPROVING THE METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR FORMING A
TERRITORIAL SUSTAINABLE DEVELOPMENT STRATEGY**

Nazarov Nazirjon Narzilloyevich

Alfraganus University, “Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti

Annotatsiya

Hozirgi sharoitda hududiy barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirish masalalari dolzarb bo‘lib, O‘zbekiston hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini samarali boshqarishda metodologik yondashuvlarni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Hududlarda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda uzoq muddatli rivojlanish ustuvor yo‘nalishlarini belgilashda strategik rejalashtirish mexanizmlarining roli ortib bormoqda. Tadqiqotda Navoiy viloyati misolida hududiy barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirishning metodologik asoslari, ularni takomillashtirish yo‘nalishlari hamda strategik rejalashtirish jarayonlarining hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta‘siri tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: hududiy barqaror rivojlanish, strategik rejalashtirish, metodologik yondashuvlar, tarkibiy o‘zgarishlar, hududiy rivojlanish strategiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, hududiy boshqaruv.

В современных условиях вопросы формирования стратегии территориального устойчивого развития являются актуальными, а совершенствование методологических подходов в эффективном управлении социально-экономическим развитием регионов Узбекистана приобретает особое значение. Роль механизмов стратегического планирования возрастает при осуществлении структурных изменений в регионах, рациональном использовании ресурсов и определении приоритетных направлений долгосрочного развития. В исследовании на примере Навоийской области анализируются методологические основы формирования стратегии территориального устойчивого развития, направления их совершенствования, а также влияние процессов стратегического планирования на социально-экономическое развитие региона.

Ключевые слова: территориальное устойчивое развитие, стратегическое планирование, методологические подходы, структурные изменения, стратегия регионального развития, социально-экономическое развитие, территориальное управление.

In the current context, the issues of forming a territorial sustainable development strategy are highly relevant, and improving methodological approaches in the effective management of the socio-economic development of Uzbekistan’s regions is of great importance. The role of strategic planning mechanisms is increasing in implementing structural changes in regions, using resources efficiently, and defining priority directions for long-term development. The study analyzes, using the example of Navoi region, the methodological foundations for forming a territorial sustainable development strategy, directions for their improvement, as well as the impact of strategic planning processes on the socio-economic development of the region.

Keywords: territorial sustainable development, strategic planning, methodological approaches, structural changes, regional development strategy, socio-economic development, territorial governance.

Globalashuv va integratsiya jarayonlarining chuqurlashuvi sharoitida O‘zbekiston hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashda barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan yangi yondashuvlarni joriy etish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishda hududiy barqaror rivojlantirish strategiyalarini shakllantirish va ularning metodologik asoslarini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Hududlarning raqobatbardoshligini oshirish, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish hamda hududlararo nomutanosibliklarni qisqartirishda strategik boshqaruv vositalarini qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Shu sababli hududiy barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirish jarayonida zamonaviy metodologik yondashuvlar, tizimli va kompleks rejalashtirish hamda natijadorlikka yo‘naltirilgan boshqaruv mexanizmlarini joriy etish zarurati ortib bormoqda.

Hududiy barqaror rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish belgilangan maqsadlarga erishishda strategiyani amalga oshirish mexanizmlarining ilmiy asoslanganligi va samaradorligiga bevosita bog‘liqdir. Shu munosabat bilan, strategiyani shakllantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish, uni amalga oshirish mexanizmlarini ilmiy-uslubiy jihatdan asoslash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Strategik boshqaruv konsepsiyasi XX asrning 60–70-yillarida raqobat muhitining kuchayishi sharoitida shakllanib, keyinchalik hududiy rivojlanishni boshqarishda keng qo‘llanila boshlandi. I. Ansoff, M. Starr, B. Karlof kabi olimlarning ilmiy ishlari strategik boshqaruv nazariyasining rivojlanishiga muhim hissa qo‘shdi [5]. Ularning tadqiqotlarida strategiya nafaqat tashkilotlar faoliyatini boshqarish vositasi, balki hududlarning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan kompleks yondashuv sifatida talqin etiladi.

Hududiy barqaror rivojlantirish strategiyasi metodologik jihatdan ikki asosiy bosqichni o‘z ichiga oladi: strategiyani shakllantirish va uni amalga oshirish [3]. Strategiya hududning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari, resurs salohiyati va rivojlanish ustuvorliklarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan ko‘p variantli qarorlar majmuasi sifatida qaraladi. Shu sababli, strategiyani shakllantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish strategik qarorlar samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Hududiy strategik rejalashtirish hududning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan maqsadlar, ustuvor yo‘nalishlar va ularni amalga oshirish mexanizmlarini belgilashni o‘z ichiga oladi. Mazkur jarayon resurslarni tanlash va samarali taqsimlash bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ochiqlik, moliyaviy barqarorlik, manfaatdor tomonlar javobgarligi va natijadorlik tamoyillariga asoslanadi.

2000-yillarga qadar O‘zbekistonda hududiy rivojlanishni uzoq muddatli strategiyalar asosida rejalashtirish yetarli darajada shakllanmagan bo‘lib, rivojlanish asosan qisqa va o‘rta muddatli dasturlar [2] orqali amalga oshirildi. Keyingi yillarda strategik hujjatlar ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, ilmiy-metodologik yondashuvlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi ularning amaliy samaradorligini cheklab keldi.

Bugungi kunda hududiy barqaror rivojlantirish strategiyalari hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini samarali boshqarishning muhim vositasiga aylanmoqda. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi [1] doirasida strategik rejalashtirishning huquqiy va metodologik asoslarini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, “Strategik rejalashtirish to‘g‘risida”gi qonun loyihasining ishlab chiqilishi hududiy strategiyalarni takomillashtirishning muhim institutsional asosi sifatida xizmat qilmoqda.

Strategik rejalashtirish geografik, ekologik, ijtimoiy va madaniy omillarni kompleks hisobga olgan holda hududlarning iqtisodiy rivojlanishini rag‘batlantirish orqali ularni barqaror o‘sish trayektoriyasiga yo‘naltirishning muhim boshqaruv vositasi hisoblanadi. Ushbu jarayon hududlarning uzoq muddatli rivojlanish istiqbollari belgilash, tarkibiy o‘zgarishlar yo‘nalishlarini aniqlash hamda barqaror rivojlanishga erishish mexanizmlarini shakllantirishni qamrab oladi.

Hududiy barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirish va amalga oshirishda strategik rejalashtirishning ikki asosiy bosqichi ajratiladi: strategiyani ishlab chiqish hamda uni amaliyotga

joriy etish. Ushbu bosqichlarning samaradorligi hududning ichki salohiyati va tashqi omillarni inobatga olgan holda ishlab chiqiladigan tizimli metodologik modelga bevosita bog‘liqdir.

Strategik rejalashtirish mexanizmini shakllantirishda kompleks va moslashuvchan yondashuvni ta‘minlash muhim bo‘lib, har bir bosqich hududning o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari hamda strategik maqsadlarga mos ravishda moslashtirilishi zarur. Bu holat hududiy barqaror rivojlantirish strategiyasining metodologik asoslarini takomillashtirishda tizimli va moslashuvchan modelni ishlab chiqish zaruratini kuchaytiradi.

Navoiy viloyatining hozirgi holatini tahlil qilish va mintaqaning tashqi hamda ichki muhitini baholash.

Hududiy barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirishda Navoiy viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holatini kompleks tahlil qilish hamda tashqi va ichki muhit omillarini tizimli baholash muhim metodologik bosqich hisoblanadi [4]. Mazkur tahlil hududning mavjud iqtisodiy salohiyati, ijtimoiy holati, ekologik cheklovlari va texnologik rivojlanish darajasini aniqlash orqali strategik qarorlar qabul qilish uchun zarur ilmiy asosni shakllantiradi.

Iqtisodiy omillar. Navoiy viloyati O‘zbekistonning yirik sanoat hududlaridan biri bo‘lib, tog‘- kon sanoati, rangli metallurgiya, kimyo va energetika tarmoqlari yetakchi o‘rinni egallaydi. Sanoat sektorining yalpi hududiy mahsulotdagi yuqori ulushi iqtisodiyotning muayyan tarmoqlarga kuchli ixtisoslashganligini ko‘rsatadi. Bu holat iqtisodiy o‘sish imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, diversifikatsiyaning pastligi va tashqi bozorlar kon’yunkturasiga yuqori bog‘liqlik bilan tavsiflanadi. Investitsiyalar asosan sanoat loyihalariga yo‘naltirilgan bo‘lib, kichik biznes va innovatsion tarmoqlarga yo‘naltirilgan investitsiyalarni kengaytirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Ijtimoiy omillar. Bandlik asosan sanoat va qisman qishloq xo‘jaligida jamlangan bo‘lib, chekka hududlarda ishsizlik, ayniqsa yoshlar va ayollar bandligining pastligi muhim muammo hisoblanadi. Ta‘lim va sog‘liqni saqlash xizmatlarining hududlar bo‘yicha notekisligi inson kapitali sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, yoshlar ulushining yuqoriligi mehnat bozori va kasbiy tayyorgarlik tizimini rivojlantirish uchun muhim imkoniyat sifatida baholanadi.

Ekologik omillar. Sanoatning yuqori ulushi ekologik yuklamani oshirib, havo, tuproq va suv resurslarining ifloslanishi hamda suv tanqisligi kabi muammolarni kuchaytirmoqda. Iqlim o‘zgarishi va cho‘llanish jarayonlari hudud barqaror rivojlanishi uchun jiddiy tahdidlar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bilan birga, ekologik barqarorlikka yo‘naltirilgan strategiyalar muhim rivojlanish imkoniyatlarini yaratadi.

Texnologik omillar. Yirik korxonalarda zamonaviy texnologiyalar qisman joriy etilgan bo‘lsa-da, ko‘plab tarmoqlarda texnologik yangilanish yetarli emas. Raqamlashtirish va avtomatlashtirish hudud raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili bo‘lib, chekka hududlarda raqamli infratuzilmaning rivojlanmaganligi texnologik tafovut va cheklovlarni kuchaytirmoqda.

1-jadvalda keltirilgan SWOT-tahlil natijalariga ko‘ra, Navoiy viloyatining kuchli tomonlari asosan sanoat va mineral-xomashyo salohiyati bilan bog‘liq bo‘lsa, zaif tomonlari iqtisodiy diversifikatsiyaning pastligi, ijtimoiy xizmatlarning notekisligi hamda texnologik eskirganlik bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, innovatsion loyihalar, raqamli iqtisodiyot va ekologik barqarorlikka yo‘naltirilgan strategiyalar hudud rivoji uchun muhim imkoniyatlar yaratadi. Tashqi bozorlar kon’yunkturasiga yuqori bog‘liqlik hamda iqlim va ekologik xavflar esa uzoq muddatli rivojlanish uchun asosiy tahdidlar sifatida baholanadi.

1-jadval

Navoiy viloyatining ichki va tashqi omillar bo‘yicha SWOT-tahlili [6]

Ichki va tashqi omillar	Kuchli tomonlar (Strengths)	Zaif tomonlar (Weaknesses)	Imkoniyatlar (Opportunities)	Tahdidlar (Threats)
Iqtisodiy	Sanoat salohiyatining yuqoriligi (tog‘- kon va metallurgiya)	Iqtisodiyotning tarmoqlar bo‘yicha ixtisoslashuvi,	Yangi sanoat va innovatsion loyihalarni jalb qilish	Tashqi bozorlar kon’yunkturasiga sezuvchanlik

		diversifikatsiya past		
Ijtimoiy	Yoshlar ulushi yuqori, mehnat bozorining rivojlanish salohiyati mavjud	Chekka hududlarda ish o‘rinlari yetishmasligi, ijtimoiy xizmatlarning notekisligi	Yoshlar va ayollar bandligini oshirish, ta’lim va kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish	Ishsizlikning yuqoriligi, migratsiya xavfi
Ekologik	Mineral-xomashyo resurslari (oltin, uran, fosforit)	Suv tanqisligi, tuproq eroziyasi, ifloslanish	Ekologik barqarorlikni ta’minlashga yo’naltirilgan strategiyalar	Qurg‘oqchilik, ekologik xavflar, iqlim o‘zgarishi
Texnologik	Ba’zi yirik sanoat korxonalarida zamonaviy texnologiyalar qo‘llanmoqda	Qishloq xo‘jaligi va kichik sanoatda texnologik eskirganlik	Raqamli iqtisodiyot va avtomatlashtirishni rivojlantirish	Texnologik yetishmovchilik, raqamli tafovut

Navoiy viloyati iqtisodiyotida tog‘-kon sanoati, rangli metallurgiya va energetika yetakchi tarmoqlar hisoblanib, sanoat sektorining yalpi hududiy mahsulotdagi yuqori ulushi hudud iqtisodiyotining muayyan yo‘nalishlarga kuchli ixtisoslashganligini ko‘rsatadi [7]. Ushbu holat iqtisodiy o‘shish uchun imkoniyatlar yaratish bilan birga, tashqi bozorlar kon’yunkturasiga yuqori bog‘liqlikni ham kuchaytiradi.

Bandlik asosan sanoat va xizmatlar sohasida shakllanadi, biroq ayrim hududlarda, xususan yoshlar va ayollar bandligini ta’minlash muammosi saqlanib qolmoqda [8]. Shu sababli mehnat bozorini diversifikatsiya qilish va yangi ish o‘rinlarini yaratish hududiy barqaror rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilanishi lozim.

Sog‘liqni saqlash va ta’lim infratuzilmasining chekka hududlarda yetarli darajada rivojlanmaganligi hududlararo ijtimoiy tafovutlarni kuchaytirmoqda. Infratuzilmani modernizatsiya qilish hududiy barqaror rivojlanishni ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Strategiyani amalga oshirishda samarali boshqaruv va muvofiqlashtirish tizimini shakllantirish hamda moliyaviy resurslar bilan yetarli ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Aniq maqsadlar va muddatlarni belgilash hamda inson resurslari salohiyatini oshirish strategiyaning samaradorligini ta’minlovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Globalashuv, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, iqtisodiy jarayonlarning klasterlashuvi hamda integratsiya yo‘nalishlarining rivojlanishi mintaqaviy boshqaruv tizimlaridagi transformatsiya jarayonlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, hududlarning mavjud holati strategik rejalashtirishning zamonaviy usul va vositalarini qo‘llash orqali ularning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini yanada samarali ta’minlash imkonini yaratadi. Hududlar nafaqat iqtisodiy o‘shish kabi miqdoriy natijalarni, balki resurs salohiyatini to‘liq ishga solish orqali iqtisodiy tizimning sifat jihatdan yangi xususiyatlarini shakllantirish, tarkibiy o‘zgarishlarni va integratsiyalashgan rivojlanishni ta’minlash yo‘lida faol harakat qilishi muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2024-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uning ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-37-son farmoni – Toshkent, 2024.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-iyundagi “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari va investitsiyalarni jalb qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-603-son Farmoni – Toshkent, 2021.

3. Казанцева Н.В. Стратегическое региональное планирование: новые вызовы и проблемы. Журнал: Russian journal of management. Том 9 № 3, 2021
4. Nazarov N. Improving the Methodology for Developing a Strategy for Sustainable Development of Regions. Jurnal.: Economics and Innovative Technologies. January, № 1, 2023. P.303
5. Korshunov I.V. Sustainable Development in Regional Strategies: Approaches and Solutions. Economy of Regions. 2023. P.218
6. Muallif ishlanmasi.
7. Nazarov N.N. Conceptual foundations of state regulation of regional sustainable development. Muhandislik va Iqtisodiyot jurnal. № 1. 2025. 535-539 b.
8. Galan J., Analysis and Strategies for Sustainable Regional Planning: Sierra Calderona Strategic Plan, Spain. Springer. 2024.

UDK:338

**QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH
HAJMINIGA OID QARASHLAR VA UNING MOHIYATI**

**ВЗГЛЯДЫ НА ОБЪЕМ ПРОИЗВОДСТВА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ СТРОИТЕЛЬНОЙ
ОТРАСЛИ И ЕГО СУЩНОСТЬ**

**VIEWS ON THE VOLUME OF PRODUCTION IN THE ENTERPRISES OF THE
BUILDING MATERIALS INDUSTRY AND ITS ESSENCE**

Toshpulatov Asronbek Mutalibovich

Andijon davlat universiteti bosh muhandisi, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Maqolada qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajminiga oid qarashlar va uning mohiyati, ishlab chiqarish hajmiga oid elementlar, uning mazmuni va mohiyati, jumladan, qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajmiga oid qarashlar yozilgan.

Kalit soʻzlar. ishlab chiqarish hajmi, daraja, qurilish bozori sotuv, material hajmi, bozorga kirish va chiqish, reklama xarajatlari, xomashyo resurslari, reklama xarajatlarini risqlari.

В статье представлены взгляды на объем производства на предприятиях строительной отрасли и его сущность, элементы объема производства, его содержание и сущность, в том числе взгляды на объем производства на предприятиях строительной отрасли.

Ключевые слова: объем производства, уровень, продажи на строительном рынке, объем материалов, вход и выход с рынка, затраты на рекламу, сырьевые ресурсы, риски затрат на рекламу.

The article presents views on the volume of production in the enterprises of the building materials industry and its essence, elements of the volume of production, its content and essence, including views on the volume of production in the enterprises of the building materials industry.

Keywords. production volume, level, construction market sales, material volume, market entry and exit, advertising costs, raw materials resources, advertising costs risks.

Bugungi kunda qurilish sohasida yaratilayotgan mahsulot hajmini koʻpaytirish, obyektlarni oʻz vaqtida va belgilangan hajmda topshirish, tannarxni pasaytirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda. Shu sababli, qurilish sanoatida ishlab chiqarish hajmining oʻsishini taʼminlovchi ichki va tashqi omillarni aniqlash hamda ulardan samarali foydalanish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Qurilish sanoati korxonalarida samarali